

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB ning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni
ko‘rib chiqish natijalari haqidagi yillik
HISOBOT**

I. Umumiy ma’lumot.

2024-yil mobaynida bankning maxsus aloqa kanallari orqali jami 7ta murojaatlar kelib tushgan hamda “Korrupsiyaga oid xarakatlar haqidgi xabarlarni qabul qilish reestri”ga kiritilgan.

Kelib tushgan murojaatlar hududlar kesimida:

1 ta murojaat – Xorazm viloyatidan (*31.01.2024-yil Ishonch telefoni orqali kelib tushgan*);

3 ta murojaat - Toshkent shahridan (*16.04.2024-yilda Ishonch telefoni orqali, 16.05.2024 yilda Telegram-bot orqali, 18.09.2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Ishonch telefoni orqali kelib tushgan*);

1 ta murojaat - Buxoro viloyatidan (*19.09.2024-yilda Telegram orqali “Хабарнома” kelib tushgan*);

1 ta murojaat – Toshkent viloyatidan (*24.09.2024-yilda ariza orqali kelib tushgan*);

1 ta murojaat – Samarqand viloyatidan (*27.09.2024-yilda bank xodimining bildirishnomasi orqali kelib tushgan*).

II. Ko‘rib chiqish natijalari.

Xorazm viloyatidan 31.01.2024-yilda ishonch telefoni orqali “Mijozning omonat mablag‘lari bank xodimlari tomonidan o‘zlashtirilganligi to‘g‘risida”gi kelib tushgan murojaat bo‘yicha - 07.02.2024-yildagi 11-sonli buyruqga asosan tuzilgan Ishchi komissiya tomonidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvi natijalariga ko‘ra murojaatda keltirilgan vajlar tasdig‘ini topgan (*29.02.2024-yildagi 04-08/1603-sonli xat bilan hujjatlar Xorazm viloyati Prokuraturasiga yuborilgan*).

Toshkent shahridan kelib tushgan:

16.04.2024-yilda ishonch telefoni orqali “Bankning ichki me‘yoriy hujjatlari talablari qo‘pol ravishda buzilishi to‘g‘risida”gi kelib tushgan murojaat bo‘yicha – 22.04.2024-yildagi 59-sonli buyruqga asosan tuzilgan Ishchi komissiya tomonidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvi natijalariga ko‘ra murojaatda keltirilgan vajlar qisman tasdig‘ini topgan (*30.04.2024-yildagi 98-sonli buyruqga asosan bank xodimi bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan*);

16.05.2024-yilda telegram-bot orqali “Bankka haq evaziga ishga kiritib qo‘yish to‘g‘risida”gi kelib tushgan murojaat bo‘yicha – 17.05.2024-yildagi dastlabki o‘rganish natijalariga ko‘ra murojaatda keltirilgan vajlar qisman tasdig‘ini topgan (*05.06.2024-*

yildagi 04-08/4778-sonli xat bilan hujjatlar Toshkent shahar Prokuraturasiga yuborilgan);

18.09.2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Ishonch telefoni orqali “Bankda xorijiy valyutada ochilgan hisobvaraqlari aylanmasidan ko‘chirma va ma’lumotni olish uchun 800 000 so‘m pul mablag‘lari to‘lanishi lozimligi va bank xodimi tomonidan olinganligi to‘g‘risida”gi yuborilgan murojaat bo‘yicha – 25.09.2024-yildagi 1001-sonli buyruqqa asosan tuzilgan Ishchi komissiya tomonidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruv natijalariga ko‘ra murojaatda keltirilgan vajlar qisman tasdig‘ini topgan (22.10.2024-yildagi bildirishnomaga asosan sentyabr oyi natijalaridan KPI ko‘rsatkichi 20 foizga qisqartirilgan).

Buxoro viloyatidan 19.09.2024-yilda telegram orqali “Buxoro BXO xodimi bank binosida fuqarodan pul mablag‘larini olganligi to‘g‘risida”gi kelib tushgan xabarnoma bo‘yicha – 24.09.2024-yildagi 996-sonli buyruqqa asosan tuzilgan Ishchi komissiya tomonidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruv natijalariga ko‘ra murojaatda keltirilgan vajlar tasdig‘ini topgan (05.11.2024-yildagi 04-08/12333-sonli xat bilan hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasiga yuborilgan, aybdor xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan).

Toshkent viloyatidan 24.09.2024-yilda ariza orqali “Yuridik departament xodimining noqonuniy xatti-xarakatlari natijasida qo‘shimcha vazifa yuklanganligi, mehnat ta‘tilga ruxsat bermaganligi va noqonuniy tarzda intizomiy jarima tayinlanganligi to‘g‘risida”gi kelib tushgan murojaat bo‘yicha - 25.09.2024-yildagi 1000-sonli buyruqqa asosan tuzilgan Ishchi komissiya tomonidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruv natijalariga ko‘ra murojaatda keltirilgan vajlar qisman tasdig‘ini topgan (aybdor bank xodimi bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan).

Samarqand viloyatidan 27.09.2024-yildagi bank xodimining “Kredit ajratishda hujjatlar sohtalik alomatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, kredit mavblag‘lari talon-taroj qilingangigi holatlari to‘g‘risida”gi bildirishnomasi bo‘yicha – 08.11.2024-yildagi 1373-sonli buyruqqa asosan tuzilgan Ishchi komissiya tomonidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruv natijalariga ko‘ra murojaatda keltirilgan vajlar tasdig‘ini topgan (07.01.2024-yilda bildirishnoma bank rahbariyatiga kiritilgan).

2024-yil davomida qo‘shimcha qo‘yidagi xizmat tekshiruvlari o‘tkazilgan:

Jizzax BXOda 18.12.2023-yilda telefon orqali “Iste‘mol kredit mablag‘lari maqsadsiz ishlatilganligi, talon-taroj qilinganligi to‘g‘risida”gi murojaat bo‘yicha - 08.01.2024-yildagi 2-sonli buyruqqa asosan tuzilgan Ishchi komissiya tomonidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruv natijalariga ko‘ra murojaatda keltirilgan vajlar tasdig‘ini topgan (16.01.2024-yildagi 01-3/148-sonli xat bilan hujjatlar Zomin tumani Prokuraturasiga yuborilgan);

Surxondaryo BXOda 22.12.2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank xati orqali “Ichki mehnat va odob-axloq qoidalari buzilishi to‘g‘risida”gi ma’lumot bo‘yicha - 08.01.2024-yildagi 3-sonli buyruqqa asosan tuzilgan Ishchi komissiya

tomonidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra murojaatda keltirilgan vajlar tasdig'ini topgan (*bank xodimi bilan 11.01.2024-yilda mehnat shartnomasi bekor qilingan*);

Namangan BXOda 29.12.2023-yilda telegram orqali "Garov mulkini Elektron Baholash MChJning baholash xulosasi bo'yicha e'tiroz to'g'risida"gi murojaat t'uyicha - o'tkazilgan dastlabki o'rganish natijalariga ko'ra korrupsion alomatlar aniqlanmagan (*16.01.2024-yildagi bildirishnomaga asosan murojaatni ko'rib chiqish vakolati bo'yicha boshqa tarkibiy bo'linmaga o'tkazilgan*);

Farg'ona BXOda 01.02.2024 yildagi ariza orqali "Ipoteka kredit mablag'lari o'zlashtirilishi to'g'risida"gi murojaat bo'yicha – 07.02.2024-yildagi 10-sonli buyruqqa asosan tuzilgan Ishchi komissiya tomonidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra murojaatda keltirilgan vajlar tasdig'ini topgan (*bank xodimi bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan, 27.02.2024-yildagi 04-08/1550-sonli xat bilan hujjatlar Farg'ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasiga yuborilgan*);

Yunusobod BXMda "Ichki mehnat va odob-axloq qoidalari buzilishi to'g'risida"gi xabarnoma bo'yicha – 14.03.2024-yildagi 10-sonli buyruqqa asosan tuzilgan Ishchi komissiya tomonidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvi natijalariga keltirilgan vajlar tasdig'ini topgan (*bank xodimi bilan 25.04.2024-yilda mehnat shartnomasi*);

Buxoro BXOda 26.04.2024-yildagi ariza orqali "bankning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati talablari buzilganligi to'g'risida"gi murojaat bo'yicha – 01.05.2024-yildagi 68-sonli buyruqqa asosan tuzilgan Ishchi komissiya tomonidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra murojaatda keltirilgan vajlar qisman tasdig'ini topgan (*29.05.2024-yildagi 204-sonli buyruq bilan bank xodimiga "Xayfsan" intizomiy jazo chorasi qo'llanilgan*);

Mirzo-Ulug'bek BXMda 20.09.2024-yildagi "Kredit mablag'lari xodimlarning plastik kartalariga o'tkazilganligi to'g'risida"gi xabar bo'yicha – Komplaens nazorat departamentining tegishli tarkibiy bo'linmasi tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar natijasiga ko'ra bank xodimlari bilan 09.10.2024-yilda mehnat shartnomasi bekor qilingan;

Bosh bankda 25.09.2024-yildagi ariza orqali "O'z hisobidan 2 dona gul tuvaklarini sotib olib ularga ko'chakt ekilganligi va ushbu gullarni bankdan olib chiqib ketganligi, keyinchalik qaytarib olib kelganligi to'g'risida"gi murojaat murojaatchining 04.10.2024-yildagi "25.09.2024-yildagi arizasi ko'rmasdan qoldirish to'g'risida"gi yangi murojaatiga asosan ko'rsasdan qoldirilgan.



III. Minimallashtirish choralari.

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha bank tizimidagi barcha xodimlarga (bank filiallari xodimlari ZOOM orqali ishtiroq etishgan) Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish hamda Komplaens nazorat departamenti tomonidan 06.12.2024-yilda tashkillashtirilgan

seminarda ma'lumot berilgan va xodimlar korrupsion xarakterliklar uchun javobgarlikga tortilishi to'g'risida ogohlantirilgan.

Shuningdek, bankning 22.01.2024-yildagi Farmoyishiga asosan davriy tarzda o'tkaziladigan o'quv-treninglar mobaynida bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari hamda ushbu talablarni buzganlik uchun javobgarlik mavzusida treninglar o'tkazilgan.

**Komplaens-nazorat
departamenti direktori**


 **A. Yoqubjonov**